

XVIII ASR BOSHLARIDA BUXORO XONLIGI HUDUDIGA KO'CHMANCHI QABILALARING HUJUMLARI VA HUKUMRON QATLAMNING ULARGA QARSHI HARAKATLARIGA UMUMIY TAVSIF.

Boltayev Oxun Obid o'g'li

Osiyo Xalqaro Universiteti "Ijtimoiy fanlar va texnika" fakulteti,

Tarix va filologiya kafedrasi, o'qituvchisi.

email: 9690798@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15043420>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XVIII asr boshlarida Jung'or xonligining Buxoro xonligiga qilgan harbiy yurishlari, diplomatik munosabatlar va ularning hududga bo'lgan ta'siri tahlil qilinadi. Ubaydullaxon va Abulfayzxon davrida jung'orlarning bosqinlari ortib, Buxoro xonligining siyosiy va harbiy vaziyati ancha zaiflashgani ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz va boshqa xalq vakillarining jung'orlarga qarshi tuzgan ittifoqlari ham tahlil qilinadi. Buxoroda jung'orlar ta'sirining kuchayishi natijasida mahalliy boshqaruv tizimiga ularning aralashuvi va bu holatning iqtisodiy hamda ijtimoiy oqibatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Jung'or xonligi, Buxoro xonligi, Ubaydullaxon, Abulfayzxon, Samarqand, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qalmoqlar, XVIII asr, harbiy yurishlar, diplomatik munosabatlar, Pyotr I, Florio Benevini, siyosiy ziddiyatlar, iqtisodiy oqibatlari, xalqaro munosabatlar.

A GENERAL DESCRIPTION OF THE ATTACKS OF NOMADIC TRIBES ON THE TERRITORY OF THE BUKHARA KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 18TH CENTURY AND THE ACTIONS OF THE RULING CLASS AGAINST THEM.

Abstract. This article analyzes the military campaigns of the Dzungar Khanate against the Bukhara Khanate at the beginning of the 18th century, diplomatic relations and their impact on the region. It is shown that during the reign of Ubaydulla Khan and Abulfayz Khan, the Dzungar invasions increased, and the political and military situation of the Bukhara Khanate weakened significantly. It also analyzes the alliances formed by Kazakhs, Karakalpaks, Kyrgyz and other peoples against the Dzungars. As a result of the strengthening of the Dzungar influence in Bukhara, their interference in the local governance system and the economic and social consequences of this situation are highlighted.

Keywords: Dzungar Khanate, Bukhara Khanate, Ubaydulla Khan, Abulfayz Khan, Samarkand, Kazakhs, Karakalpaks, Kalmyks, 18th century, military campaigns, diplomatic relations, Peter I, Florio Benevini, political conflicts, economic consequences, international relations.

ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА НАПАДЕНИЙ КОЧЕВЫХ ПЛЕМЕН НА ТЕРРИТОРИЮ БУХАРСКОГО ХАНСТВА В НАЧАЛЕ XVIII ВЕКА И ДЕЙСТВИЙ ПРАВЯЩЕГО КЛАССА ПРОТИВ НИХ.

Аннотация. В статье анализируются военные походы Джунгарского ханства против Бухарского ханства в начале XVIII века, дипломатические отношения и их влияние на регион. Показано, что в период правления Убайдулла-хана и Абулфайз-хана усилились джунгарские нашествия, а политическое и военное положение Бухарского ханства значительно ослабло. Будут также проанализированы союзы, созданные казахами, каракалпаками, киргизами и другими народами против джунгар. Усиление влияния джунгар в Бухаре привело к их вмешательству в систему местного управления и экономическим и социальным последствиям этой ситуации.

Ключевые слова: Джунгарское ханство, Бухарское ханство, Убайдулла-хан, Абулфайз-хан, Самарканد, казахи, каракалпаки, калмыки, XVIII век, военные походы, дипломатические отношения, Петр I, Флорио Беневини, политические конфликты, экономические последствия, международные отношения.

XVIII asr boshlarida Jung‘or xonligi yangidan istilochilik yurishlarini boshlab yuborilgan bo‘lib, bevosita Buxoro xonligi hududiga ham bosqinlar uysushtirila boshlangan. tarixiy adabiyotlardagi ma’lumotlarda 1706 yilda Buxoro xoni Ubaydullaxon (1675/1702-1711 yy) Balxga isyonchi amirlarni jazolash uchun yurish qilayotgan vaqtida jung‘orlar hujumini bartaraf qilish uchun Samarqand shahriga borganligi qayd etilgan¹³⁰. Jung‘orlarning hujumlari avj olishi ortidan ularga qarshi ittifoq tuzish maqsadida diplomatik munosabatlar amalga oshirilgan.

Misol tariqasida Xo‘jabergan jirav (qozoqcha Qojabergen-ъигау, 1663-1763 yy) faoliyatini keltirib o‘tish mumkin. Xo‘jabergan jirav mohir sarkarda, talantli musiqachi bo‘libgina qolmay, elchilik faoliyatida ham muvoffaqiyatlarga erishgan. Qozoqlar qoraqalpoqlar, qirg‘izlar va Buxoro xonligi bilan umumiy dushmanga qarshi ittifoq tuzganlar. Ushbu ittifoqni yana kengaytirish maqsadida Xo‘jabergan jirav Baykalbo‘yi qabilalari, Saxa (Yoqtular), Xas (Xakaslar) huzuriga ham borgan¹³¹. Tuzilgan ittifoq hukumron tabaqalarning o‘z manfaatini ko‘zlaganligi sababli o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erisha olmagan. XVIII asr boshlaridan boshlab Buxoro xonligida jung‘orlarning hujumlari kuchayib borgan. Ubaydullaxon hukumronligi davrida Samarqand shahrini qalmoqlardan mudofa qilishga 1709 yilda ikkinchi bora kelishga majbur bo‘lganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o‘tilganligini ko‘rishimiz mumkin¹³². Yuqorida keltirib o‘tilganidek, tuzilgan ittifoq etarli darajada mustahkam bo‘lmagan. Shu sababli jung‘orlarning Samarqandgacha bosqin qilib kelishi sodir bo‘lgan. Hatto,

Buxoro xonligining muhim davlat mansablarida ham Jung‘oriyadan kelgan shaxslarni egallaganligini ko‘rish mumkin. Bu holat Ubaydullaxonidan keyin taxtga o‘tirgan Abulfayzxon hukumronligi (1711-1747 yy) davrida yaqqol ko‘zga tashlangan. Hatto, ma’lum bir muddat Buxoro xonligi davlat ishlari qushbegi lavozimini egallagan Jaushan qalmoq qo‘lida to‘plangan¹³³. A.Saidov ma’lumotlarida, Jaushan qalmoq amalda mamlakat hukumdoriga aylanib qolganligi bilan bog‘liq fikr-mulohazalar keltirilgan¹³⁴. Amirlikning eng yuqori lavozimini qalmoqlar tomonidan qo‘lga kiritilishi Buxoro xonligida ularning ta’sir doirasi qay darajada yuqori ekanligini ko‘rsatib beradi. Abulfayzxon hukumronligi davrida Buxoroga Rossiya imperatori Pyotr I ning elchisi sifatida kelgan Florio Benevini (1721-1725 yy) yozib qoldirgan ma’lumotlar ham yuqorida fikr-mulohazalarni tasdiqlaydi. F.Benivini esdaliklarida, Buxoro xonligida qalmoqlar ta’siri katta bo‘lib, xonning shaxsiy qo‘riqchilarining asosiy qismi ya’ni, 350 tasi qalmoqlardan, 150 tasi xonazot (qul qilingan rus asirlari)dan ekanligi yozib qoldirilgan¹³⁵. Mahalliy qabila vakillarining xon himoyasida qatnashmasligi, Buxoro xonligida urug‘-qabilalarning o‘zaro ziddiyatlari avj olgani va saroyda qozoqlarning ta’siri oshgan degan xulosaga olib keladi. Florio Benevini Jung‘or xonligining O‘rta Osiyo hudadlariga hujumlari kuchaygan vaqtida Buxoroga kelgan. Aynan 1723 yildan boshlangan hujum qozoqlarni majburiy migratsiyasiga sabab bo‘lgan. Qozoq ma’rifatparvari Ch.Ch. Valixonov ma’lumotlarida shu vaqtida qozoqlarning O‘rta juzlari Samarqand hududiga, Kichik juz qozoqlari esa Xiva va Buxoro atroflariga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lganliklari keltirib o‘tilgan¹³⁶. Shuningdek, XVIII asrning birinchi yarmidagi Jung‘orlarning tazyiqi bilan qozoqlarning O‘rta juz qabilalari Samarqand va Buxoro hududlari tomon siljiy boshlaganligi Qozoq tadqiqodchilari asarlarida ham uchraydi¹³⁷. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Buxoro va Samarqand atroflariga qochib kelgan qozoqlar bu erda ham osoyishta hayotga erishmaganlar deb xulosa qilishga asoslar etarli.

Buxoroda bo‘lib turgan Pyotr I elchisi F.Benevini 1723 yilda Jung‘or xoni Sevan-Rabdan elchisi Buxoroga kelib, Samarqanddan Abulfayzxon soliq olmasligi, agar ushbu talab bajarilmasa Jung‘or xoni qo‘sish bilan kelishi va tartib o‘rnatishi, Buxoro xoni uning yo‘lidan chiqsa, Buxoroni ishg‘ol qilishini ma’lum qilganligini yozib qoldirgan. Ikkinci bir tomondan qozoq urug‘-qabilalari Buxoro xonligining ichki kurashlariga tortilganlar va Movarounnahri siyosiy jihatdan yanada parchalanishi, iqtisodiy jihatdan vayron bo‘lishi, ocharchilik, qashshoqlik natijasida ko‘plab aholining boshqa hududlarga bosh olib ketishlariga ham sababchi bo‘lganlar¹³⁸. Jung‘or xonligining Sin imperiyasi bilan kurashlari davrida qo‘sishlarining asosiy qismi Sharqda band bo‘lganligidan foydalangan qozoqlar 1739 yilda Toshkentni qayta qo‘lga kiritganlar. Toshkent ustidan qayta nazoratni tiklash maqsadida 1742 yilda harbiy yurish uyushtirilgan.

Ammo, ushbu yurishdan ko‘zlangan boshqa maqsadlar ham bo‘lib, Jung‘or sarkardasi Sarы Manji Buxoro xonligining ayrim hududlari ustidan ham nazorat o‘rnatishga uringan.

Jumladan, jung‘orlar Samarqandni shahrini egallahsga bo‘lgan urinish muvofaqiyatsizlikka uchragan. Buxoro xonligining Badaxshon¹⁴⁰ va Xo‘jand viloyatlarini egallahsga bo‘lgan urinish ham muvofaqiyatsizlikka uchragan¹⁴¹. Ammo, vayronkorlik, talonchilik Buxoro xonligidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotga katta ta’sir ko‘rsatgani shubhasiz. XVIII asr o‘rtalarida qalmoqlarning Buxoroga hujumlar xavfli tus olgan va xonlikning xalqaro maydondagi nufuziga salbiy ta’sir o‘tkazgan. V.V. Bartold ma’lumotlarida Jung‘or xonligi kuchaygan vaqtida hatto, Buxoro xoni ham unga qaram vassal davlat hisoblanganligi bilan bog‘liq fikrlarni keltirib o‘tgan¹⁴². Bu davrda Jung‘or xonligi o‘zining kuch-qudrati cho‘qqisiga erishgan. Jung‘or xonligi XVIII asr o‘rtalarida Buxoro, Qo‘qon, Andijon, Uch-Turfon Badaxshon-tarixiy geografik o‘lkasi Shayboniyilar sulolasidan keyin mustaqil bo‘lib, Abdullaxonning noibi Yorbekxon o‘zining Buxorodan mustaqil sulolasiga asos solgan. Ammo, XVIII asrda Badaxshonda ham bir necha feodal guruuhlar hokimiyat uchun kurash olib borganlar.

Ayrim olimlarning ilmiy izlanishlarida Badaxshonda hokimiyat uchun kurash olib borayotgan feodal guruuhlar Jung‘or feodallarini yordamga chaqirganlar. Jung‘orlar Badaxshonni o‘zlariga bo‘ysundirib, hukumdar o‘g‘lini garov sifatida o‘zlari bilan Ilbo‘yiga olib ketganlar. Badaxshon orqali Xitoy, Hindiston, Eron orqali o‘tuvchi karvon yo‘llari savdo yo‘llari ustidan nazorat o‘rnatish orqali muhim iqtisodiy asosga ega bo‘lish imkonini tug‘dirgan. Shu sababli jung‘orlar Badaxshon ichki ishlariga aralashganlar. B.P. Gurevich ma’lumotlarida esa, XVIII asrning o‘rtalarida Sultonshoh hokimiyat tepasiga kelgandan so‘ng Pomir hududidagi Chitrol, Qorategin va boshqa mayda mulklarga hujumi kuchaygan. Yettisuv, Sirdaryobo‘yi, Afg‘onistonning ayrim hududlari (Badaxshon)ni o‘z ta’sir doirasi ushlab turgan, ular Eron bilan turli muzokaralar olib borganlar. Markaziy Osiyoda Jung‘or xonligi biz ko‘rib chiqayotgan tarixiy davrda eng qudrathi davlat bo‘lib hisoblangan deb xulosa qilish mumkin

REFERENCES

1. Тулибаева Ж.М. Казахстан и Бухарское ханство в XVIII – первой половине XIX в. – Алматы: Издательство «Дайк-Пресс», 2001.
2. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (Письменные памятники). – Т.: Фан, 1985
3. Сайдов А. Политическое и социальноэкономическое положение Бухарского ханства в XVII - первой половине XVIII вв. // Автореферат докторской диссертации на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Душанбе-2007.

4. 2Батрольд В.В. Сочинения. Работы по истории и филологии тюркских и монгольских народов. Том V. – М.: Наука, 1968.
5. Boltayev, O. (2024). QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI. *Modern Science and Research*, 3(10), 64-68.
6. Obid o'g'li, B. O. QO'QON XONLIGINING XVIII ASR SO'NGI CHORAGIDA BUXORO, XIVA VA KO'CHMANCHILAR BILAN OLIB BORGAN DIPLOMATIYASI.
7. Boltaev, O. (2024). BUKHARA'S CARAVAN TRADE AND ITS ROLE ON THE SILK ROAD. *Analytical Journal of Education and Development*, 4(10), 293-297.
8. Boltayev, O. (2024). XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA VA TURKIYA ITTIFOQINING MARKAZIY OSIYOGA TA'SIRI. *Modern Science and Research*, 3(12), 556-564.
9. Boltayev, O. (2023). A GENERAL DESCRIPTION OF THE POLITICAL AND DIPLOMATIC PROCESSES IN CENTRAL ASIA IN THE MIDDLE OF THE 18TH CENTURY. *Modern Science and Research*, 2(9), 145-149.
10. Boltayev, O. (2025). TARIX FANI UCHUN YOZMA VA OG'ZAKI MANBALARNING SHAKLLANISHI. *Modern Science and Research*, 4(1), 909-917.
11. Boltayev, O. (2025). XITOY (SIN) IMPERIYASINING JUNG 'OR XONLIGINI ISTILO QILISH ARAFASIDA MARKAZIY OSIYODA SIYOSIY VAZIYAT. *Modern Science and Research*, 4(2), 1029-1037.
12. Boltayev, O. (2025). XITOY (SIN) IMPERIYASINING JUNG 'OR XONLIGINI ISTILO QILISH ARAFASIDA MARKAZIY OSIYODA SIYOSIY VAZIYAT. *Modern Science and Research*, 4(2), 1029-1037
13. Ярашова, М. . (2024). ЖАҲОН ЭТНОЛОГИЯСИ ФАНИ ВА УНИ ЎҚИТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МЕТОДОЛОГИЯСИ. *Modern Science and Research*, 3(10), 362–368. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/44901>
14. Ярашова, М. (2024). БУХОРО ВОҲАСИДА МАТО ВА МАТО ТАЙЁРЛАШ УСУЛЛАРИ. *Modern Science and Research*, 3(11), 782–787. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/48057>
15. Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna. (2024). Muyiddin Ibn Arabiyning Tasavvuf Ta'lilotida Tahsil Olgan Ayol Ustozlari Va Ta'lim Bergan Ayol Shogirdlari. *Miasto Przyszlosci*, 52, 622–625. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4679>

16. Yarashova, M. (2024). ILK O'RTA ASR MANBALARIDA KIYIM-KECHAKLAR VA ULAR BILAN BOG'LIQ ATAMALAR TAVSIFI. *Modern Science and Research*, 3(12), 621–632. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/58456>
17. Ярашова, М. (2025). ПАРАНЖИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ. *Modern Science and Research*, 4(1), 160–168. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/60323>
18. Sayfutdinov , F., & Sharipov , D. (2025). CENTRAL ASIAN INTEGRATION: HISTORICAL DEVELOPMENT AND PROSPECTS. *Journal of Universal Science Research*, 3(1(Special issue)), 300–304. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/universal-scientific-research/article/view/65623>
19. Ilniyazovich, S. F. (2023). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TARIX FANINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI.
20. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). ETNOGRAFIK TADQIQOTLARDA QORAQALPOQ XALQINING YORITILISHI.
21. Ilniyazovich, S. F. (2024). The Formation of Preliminary Knowledge about the People of Karakalpak. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 149-155.
22. Sayfutdinov, F. (2024). BUXORO AMIRLIGINING QURILISH TARIXI: MADANIY VA ARXITEKTURA TARAQQIYOTI MEROJI. *Modern Science and Research*, 3(12), 852-858.
23. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(9), 1–5. Retrieved from <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/7941>
24. Gulyamov, A. A. (2024). JAMIYATIMIZNING IJTIMOIY-IQTISODIY, MA'NAVIY-MADANIY SOHALARIDA OILANING ROLI. *ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(2), 149-153.
25. Azizovich, G. A. (2024). Trade Relations of Population in Bukhara Emirate, Shariah Rules and Regulations in Commercial Affairs, Partnership Relations. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 189-194.
26. Azizovich, G. A. (2024). Family-Marriage and Inheritance Relations of the Population in the Bukhara Emirate. *Miasto Przyszlosci*, 53, 964-969.
27. Gulyamov, A. (2024). BUXORO MUZEYNING TASHKIL TOPISHI TARIXI. *Modern Science and Research*, 3(12), 659-667.

28. Gulyamov, A., & Ashurov, D. (2025). CHANGES IN THE LIFE OF THE WORLD'S COUNTRIES AFTER WORLD WAR II. *Journal of universal science research*, 3(1 (Special issue)), 333-341.
29. Gulyamov, A. (2025). MANG 'ITLAR SULOLASI DAVRIDA DAVLAT BOSHQARUVI, TUZUMI VA ICHKI SIYOSATI. *Modern Science and Research*, 4(1), 790-798.
30. Haqqulov, M. Y. O. G. L. (2022). Markaziy Osiyoda ilk diplomatik munosabatlar tarixi. *Science and Education*, 3(10), 385-389.
31. Yunusovich, H. M. (2024). Experiences Related to the Fine Fiber Cotton of Uzbekistan during the Years of Soviet Authority. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(9), 129-132.
32. Yunusovich, H. M. (2024). The Formation, Development and Role of the High Seljuk Empire Founded by the Turkic Peoples in the Islamic World. *Miasto Przyszłości*, 53, 956-959.
33. Haqqulov, M. (2024). O 'RTA OSIYO XALQLARINING OZODLIK ORZUSI BO'LGAN "TURKISTON MUXTORIYATI". *Modern Science and Research*, 3(12), 609-613.
34. Xayrullayev, U. (2024). THE IDEA THAT MADE THE OTTOMAN STATE GREAT (RED APPLE II). *Modern Science and Research*, 3(2), 1071-1073.
35. Xayrullayev, U. (2024). BRIEFLY ABOUT THE" RED APPLE" MYTHOLOGY OF THE TURKS. *Modern Science and Research*, 3(1), 568-572.
36. Umidjon, X. (2024). Literacy and Information Exchange in the Ancient East and West. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 4(3), 179-183.
37. Xayrullayev, U. (2024). THE POSITION OF CENTRAL ASIAN GOVERNORSHIPS DURING THE PERIOD OF THE TURKISH KHANATE AND THE ARAB INVASION.
38. Xayrullayev, U. (2024). EFTALLAR DAVLATI VA TURK XOQONLIGIDA HUKMDORLIK LEGITIMATSİYASI. *Modern Science and Research*, 3(12), 843-851.
39. Haqqulov, M. (2025). USMONIYLAR IMPERIYASINING TASHKIL TOPISH TARIXI. *Modern Science and Research*, 4(1), 663-672.
40. Toxirovich, N. J. (2025). MASOFAVIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR ISHONCHI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(1), 679-684.

41. Toxirovich, N. J. (2025). MASOFAVIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALAR ISHONCH HISSINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 2(2), 210-214.
42. Nozimov, J. (2024). Talabalar masofaviy ta'lim jarayonida ishonch tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(10), 384-388.
43. Toxirovich, N. J. (2024). MASOFAVIY TA'LIM JARAYONIDA TALABALARDA MOTIVATSION HISSINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 2(1), 180-184.
44. Nozimov, J. (2024). TALABALARDA MASOFAVIY TA'LIM JARAYONIDA ISHONCH TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Medicine, pedagogy and technology: theory and practice, 2(9), 626-636.
45. Sadullayev , U. . (2024). MAHALLA: UNDERSTANDING THE CONCEPT. Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice, 2(4), 376–385.
46. Sadullaev , U. . (2024). USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN EDUCATION. Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice, 2(5), 344–352.
47. Sadullaev, U. (2024). EDUCATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW ERA OF OPPORTUNITY. Medicine, Pedagogy and Technology: Theory and Practice, 2(6), 238–241.
48. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 276-280.
49. Shokir o'g'li, S. U. (2024). Media literacy is a requirement of the modern world. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 276-280.
50. Shuhratovna, T. S. (2023). Ethnological Analysis Of National Costumes And Rituals Of Tajiks In The Works Of MS Andreyev. International Journal Of History And Political Sciences, 3(12), 42-47.
51. Toshpo'latova, S. (2023). MS Andreyev-Scientific Career. Modern Science and Research, 2(12), 801-807.
52. Shuhratovna, T. S. (2023). Etymology Of Tajik Marriage Ceremony. International Journal Of History And Political Sciences, 3(11), 17-23.
53. Toshpo'latova, S., & Ashurova, G. (2023). THE HISTORY AND DESCRIPTION OF THE WORK OF MS ANDREYEV- " ARK BUKHARI". Modern Science and Research, 2(9), 404-409.

54. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDRICAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAJIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. Modern Science and Research, 2(10), 291-299.
55. Toshpo'latova, S. (2023). A STUDY OF THE WEDDING CEREMONY OF THE TAJIKS OF AFGHANISTAN. Modern Science and Research, 2(9), 84-89.
56. Naimov, I., & Toshpo'latova, S. (2023). Marriage Ceremony Of Tajiks In The Work Of Mikhail Stepanovich Andreyev "Tadjiki Dolini Khuf". International Journal of Intellectual Cultural Heritage, 3(1), 12-16.
57. Toshpo'latova, S. S. (2023). Tojiklar Milliy Kiyim-Kechaklari Va "Beshmorak" Marosimining Etnologik Tahlili. Scholar, 1(28), 395-401.
58. Toshpo'latova, S., & Hoshimova, M. (2025). BERUNIY VA UNING DIDAKTIK QARASHLARI. Modern Science and Research, 4(1), 344-351.
59. Toshpo'latova, S. (2024). ILK UYG'ONISH DAVRI NAMOYONDALARNING DIDAKTIK QARASHLARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI TARIX FANIGA QIZIQTIRISH METODIKASI. Modern Science and Research, 3(12), 643-651.
60. Muyiddinov, B., Toshpo'latova, S., & Gadayeva, M. (2025). TEMURIYLAR DAVRIDA KUTUBXONACHILIK, HUJJATCHILIK VA ISH YURITISHNING O'ZIGA XOSLIGI. Modern Science and Research, 4(2), 97-105.
61. Toshpo'latova, S., Gadayeva, M., & Muyiddinov, B. (2025). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI TARKIB TOPTIRISH MODELI. Modern Science and Research, 4(2), 106-116.
62. Gadayeva, M., Toshpolatova, S., & Muyiddinov, B. (2025). TARIX DARSLARINI OQITISHDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI. Modern Science and Research, 4(2), 87-96.